O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANI HOKIMINING QARORI

IND:131000 *O’smat sh. Mustaqillik ko’chasi 42-uy.*

2022 - yil 20 - oktabr 366-3-44-Q/22 Baxmal tumani hokimligi

Tuman hududidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini ta`minlash, yo`l transport hodisalarining oldini olish maqsadida 1.31-“sun`iiy yo`l notekisligi” yo`l belgilari va qurilmalarini o`rnatishga ruxsat berish to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O`zbekiston Respubliksi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-27-sonli Farmoni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo`llarida inson xafsizligini ishonchli ta`minlash va o`lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-190-sonli, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo`l harakati qoidalarini tasdiqlash to`g`risifa”gi 172-sonli qarori ijrosi, tuman Ichki ishlar bo`limining 2022-yil 22 iyundagi 7/313-sonli axbarot xatini inobatga olib, yo`l transport hodisalarini oldini olish, harakat xavfsizligini ta`minlash maqsadida, O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to`g`risida”gi qonuniga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Baxmal tuman Ichki ishlar bo`limining 2022-yil 22 iyundagi 7/313-.sonli xati axbarot ma`lumot uchun qabul qilinsin va qanoatlantirilsin.
2. Baxmal tumani Ichki ishlar bo`limi (A.Jalolov)ga va tuman IIB YHXG (A.Sulaymonov)ga hamda tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi (Sh.Sultanov)larga:

-Baxmal tumani hududidagi avtomobil yo`llarida piyodalar, transport vositalari harakati xavfsizligini ta`minlash va tartibga solish, transport vositalari oqimini bir maromda taqsimlash, yuzaga kelishi mumkin bo`lgan tirbandliklarning oldini olish, yo`lovchilar va haydovchilar xavfsizligini ta`minlash maqsadida qonunchilikda

belgilangan tartibda o`rnatish;

-Tuman hududidagi ta`lim massasalari yonidan o`tuvchi umumfoydalanishdagi avtomobil yo`llarida piyodalar va transport vositalari harakat xavfsizligini ta`minlash, harakatni tartibga solish maqsadida quyidagi yo`l belgilarini;

a. Tuman hududidan o`tuvchi 4R40 "Dashtobod sh.-Zomin sh.-Baxmal q.-G'allaorol sh" avtomobil yo`lining 129-130 km oralig`ida *(19-sonli umumta`lim maktab ro`parasida),* 133 km.da *(60-sonli umumta`lim maktab ro`parasida)*, 138-139 km oralig`ida *(24-sonli umumta`lim maktab ro`parasida)*, 143-144 km oralig`ida *(25-sonli umumta`lim maktab ro`parsida)*, 154-155 km oralig`ida *(27-sonli umumta`lim maktab ro`parsida)* **1.31-"sun`iy yo`l notekisligi"** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini
b. Tuman hududidan o`tuvchi 4R 41 "M-39 avtoyo'lidan - O'smat sh.-Baxmal q."avtomobil yo`lining 27-28 km oralig`ida (*5-sonli umumta`lim maktabi ro`parsida*), 30-31 km. oralig`ida (*1-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi ro`parsida*), 45-46 km oralig`ida (*12-sonli umumta`lim maktabi ro`parsida*), 56-57 km oralig`ida (*14-sonli umumta`lim maktabi va 15-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi ro`parsida*), 58-59 km oralig`ida (*61-sonli umumta`lim maktabi ro`parsida*), 59-60 km oralig`ida (1*5-sonli umumta`lim maktabi ro`parsida*) **1.31-"sun`iy yo`l notekisligi"** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini,
c. Tuman hududidan o`tuvchi 4R 238 "Samarqand sh.-Bulung'ur sh.-Turon q.- Alamli q." avtomobil yo`lining 8-9 km oralig`ida (*56-sonli umumta`lim maktabi ro`parsida*) **1.31-"sun`iy yo`l notekisligi"** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini,
d. Tuman hududidan o`tuvchi 4K 247 "O'smat sh.-Gulbuloq q.-Kinchir q." avtomobil yo`lining 10 km.da *(43-sonli umumta`lim maktab ro`parasda)* **1.31-"sun`iy yo`l notekisligi"** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini,
e. Tuman hududidan o`tuvchi 4K 260 "O'smat sh.-Alamli q.- Kildon q." avtomobil yo`lining 1-2 km. oralig`ida *(3-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi ro`parsida),* 10-11 km. oralig`ida *(10-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi ro`parsida)* **1.31-"sun`iy yo`l notekisligi"** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini,
f. Tuman hududidan o`tuvchi 4N 1238 b "4R 41 a/yo'lidan "Kaltatoy -O'smat" yo'liga chiqish" avtomobil yo`lining 0-1 km oralig`ida *(7-maktabga boruvchi yo`l chorrahasida),*1-2 km oralig`ida *(shashlik markazi choyxonasi ro`parasida),* 2-3 km oraliqlarida (*Olamon qishlog`i jome` masjidi ro`parasida*) 3-4 km oralig`ida *("OROM" choyxonasi ro`parasida)* **1.31-"sun`iy yo`l notekisligi"** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini
g. Tuman hududidan o`tuvchi 4N 1238 v "4R 41 a/yo'lidan "Novqa"qishlog'iga" avtomobil yo'lining 1-2 km oralig`ida *(8-sonli umumta`lim maktab ro`parasda)*

1.31-“sun`iy yo`l notekisligi” yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini

h. Tuman hududidan o`tuvchi 4N 1239 "Kamar q.-Teran q.-"Do'lana" oromgohi" avtomobil yo'lining 0-1 km oralig`ida *(35-sonli umumta`lim maktab ro`parasda)* **1.31-“sun`iy yo`l notekisligi”** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini

i. Tuman hududidan o`tuvchi 4N 1240 A "O'smat-Kildon" avtomobil yo'lidan "Qorancha" qishlogiga boruvchi shaxobcha avtomobil yo'lining 2-3 km oralig`ida *(maktabgacha ta`lim muassasa ro`parasida)* **1.31-“sun`iy yo`l notekisligi”** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini

j. Tuman hududidan o`tuvchi 4N 1240 B "O'smat-Kildon" avtomobil yo'lidan "F.Yo'ldosh" FU.ga boruvchi shaxobcha avtomobil yo'lining 1-2 km oralig`ida *(19-sonli maktabgacha ta`lim muassasa ro`parasida)* **1.31-“sun`iy yo`l notekisligi”** yo`l belgilari hamda sun`iy yo`l notekisligi qurilmasini o`rnatish vazifasi yuklatilsin.

3. Baxmal tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi (Sh.Sultanov)ga tuman hududida joylashgan umumiy fodalanishdagi avtomobil yo`llarining serqatnov qismlariga piyodalar o`tish joyi yo`l yotiq chiziqlarini chizish va maxsus yo`l belgilarini o`rnatish vazifasi topshirilsin.
4. Qarorni “Baxmal hayoti” gazetasi muharriri T.Berdiyevga chop ettirish va tuman hokimligi axbarot xizmati rahbari A.Egamberdiyevga rasmiy veb-saytida joylashtirish vazifasi yuklatilsin.
5. Ushbu qaror “Baxmal hayoti” gazetasida rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.
6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilinish tuman hokimining o`rinbosari A.Quljanov va tuman IIB boshlig̀i A.Jalolovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Anarbayev**